



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI XALQ
TA'LIMI BOSHQARMASI
KOSONSOY TUMAN XALQ TA'LIMI
MUASSASALARI FAOLIYATINI METODIK
TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH BO'LIMIGA
QARASHLI 28-UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABINING BOSHLANG'ICH SINFI
O'QITUVCHISI

USMONOVA GULNORANING

BIR SOATLIK

DARS ISHLANMASI



Kosonsoy shahri

Dars ishlanma Namangan viloyati Kosonsoy tumani XTMFMTTEB ga qarashli 28- umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan davlat talablari asosida tayyorlangan bo'lib, bundan umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari ish faoliyati davomida foydalanishi mumkin.

Muallif: G.Usmonova 28- maktabning
1-toifali boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.Xalq ta'limi a'lochisi

Muhariri: Q.Mamatvaliyev Namangan viloyat
xalq ta'limi boshqarmasi metodika
markazi direktori

Taqrizchilar: M.Payzibayeva NVXTB
boshlang'ich ta'lim metodisti

H.Mamkarimova KTXTMFMTTEB
boshlang'ich ta'lim metodisti

Ushbu dars ishlanma NXTB metodika kengashining "____"
yil "_____" kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida "____" - sonli
qarori bilan tasdiqlanib foydalanish uchun tavsiya etilgan.

MAVZU: VATAN MIRAZIZ A'ZAM.

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarda "Vatan" she'rini ifodali o'qishni o'rgatish. Vatan haqida mustaqil fikrlashga o'rgatish. O'yin holatida bilimlarini namoyish qilishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Mavzu orqali o'quvchilarni Vatanni sevishga, aqdoqlashga o'rgatish. Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalsh.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni og'zaki, nutq malakalarini shakllantirish. Ongli va anglab o'qish malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars tipi: Noan'anaviy.

Uslub: Evristik, suhbat, tushuntirish, savol-javob.

Jihozi: Qog'oz, marker, skoch, rangli rasmlar, chiroyli yurt tasviri.

I. Tashkiliy qism:

Salomlashish, o'quvchilar va sinf xonasini darsga tayyorlab, fikrlarini, diqqatlarini to'plab olaman. O'quvchilarni guruhlarga ajratibolaman. Har bir huruh o'ziga nom tanlaydi va yozib qo'yadi. Masalan: Vatanimizni faravon bo'lishiuchun yaxshi niyatlar bilan atash mumkin.

- 1-guruh: Muqaddas go'sha
- 2-guruh: Mehmondo'st o'lka
- 3-guruh: Mustaqil diyor

Har bir guruh o'ziga sardor say lab oladi.

Aziz o'quvchilar bugungi darsimiz "Biz Vatanning ertasi" deb nomlanadi. Vatan haqida biz har bir darsimizda, har bir fanda o'rganamiz. Uni qanchalik o'rgansak, shuncha kam.

Bugungi darsimiz seminar trening usulida, aktiv ishtirok etishingizni so'ray man. Endi vatan haqida o'rganishimiz kerak bo'lgan tamoyillarni belgilab olamiz. Tamoyillar

- 1. Savollarga javob berishda qo'l ko'tarishga rioya qilish
- 2. Faollik
- 3. O'zarohurmat
- 4. Mening fikrim yagona emas, o'zgalarniki hamqadrli
- 5. O'zaro hamjihatlik
- 6. Erkin fikrlash
- 7. Ijodiy va mustaqil, tanqidiy fikrlarni ayta olish
- 8. Ko'tarinki kayfiyat, hazil mutiyiba hamrohimiz bo'lsin.

Har bir guruhga marker, qog'oz tarqataman

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash va takrorlash.

Guruhlarga "O'zbekiston" she'rini yoddan so'rash .



"So'z top" o'yini

1-guruh: O'zbekiston

O'zbek	O'z
Noteks	Kit
Bek	Is

2-guruh: Mustaqillik

Usta	Kalit
Millat	Sim
Il	It

3-guruh: Serquyosh.

Quyosh	Osh
Ushoq	Er
Yosh	Quy

Guruhlar bir-birlariga savol beradilar.

1-guruh: O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?

2-guruh: Toshkentda qanday istirohat bog'lari bor?

3-guruh: Toshkent haqida so'zlang.

Har bir guruh bergan javobi uchun rag'batlantirilib ball beriladi.

III. Yangi mavzuni tushuntirish:

VATAN

Vatan bizning uyimiz,
Vatan bizning ko'chamiz.
Soylarda sof suvimiz,



Maza qilib ichamiz.
Vatan bizning tog'imiz,
Olma, anor bog'imiz.
Bug'doy, arpa daramiz,

O'ynab maza qilamiz.
Oltin tola konimiz,
Tandir to'la noninrtiz.
Vatan maktab, onamiz,

O'qishni o'rganamiz.
Qirq xil hunar o'rganib,
Yurtimni shod qilaman.
Go'zal, erkin, muzaffar,

Bov va obod qilaman.
Men shu yerda ulg'aydim,
Vatanimni sevaman.
Kerak bo'lsa yurt uchun
Jonimni ham beraman.

1-Topshiriq: Vatanimizni ta'riflang.



Guruhlar maslahatlashib yozadilar. Har bir guruh yozgan qog'ozlarini doskaga iladilar va sharhlab beradilar. Eng ko'p ta'riflagan guruhni maqtab, musiqali rag'batlantiriladi.

2-opshiriq: Vatanimizda yashab o'tgan allomalar haqida nimalarni bilasiz?

Bu topshiriq natijalarini ham o'quvchilar qog'ozga tushiradilar. Albatta, guruh a'zolari maslahatlashib ta'riflar izohlanadi. Ularning eng yaxshilari tanlab olinadi.

3-Topshiriq: O'z uyingni-o'zing asra.

Guruh a'zolari javoblarini to'ldiraman. Yurtimizda tinchlikni, barqarorlikni ko'rolmayotgan, turli g'araz niyatlarni ko'zlab, o'zga mamlakatlardagi diniy qarshlar niqobida harakat qilayotgan yovuzlar, mavjud. Bu paytda ogog bo'lishimiz zarur.

IV. Mustahkamlash: O'quvchilarga she'rni bir banddan navbati bilan o'qitish.


Guruhlarga savolberish.

1-guruh: Muallif she'ri kimlarga bag'ishlagan?

2-guruh: Biz kelajakda Vatan uchun nima ishlar qila olamiz?

3-guruh: Nima uchun Vatanimizni sevamiz?

Guruhlarga topshiriq berish davom ettiriladi?



1. Sabzavot turi

2. Ramzlardan biri

3. To'g'ri yo'l ko'rsatuvchi

4. Onalar qo'shig'i

5. Rizq ro'zimiz

Bu topshiriq uchun ham guruhlar g'olibi

aniqlanadi.

Aziz o'quvchilarim!

Vatanimizna qancha ta'riflamaylik,

o'rganmaylik, shuncha ,

oz. Vatan shunday muqaddas go'shaki, inson

uning rivoji

uchun qo'ldan kelgancha hissa qo'shishi,

uning himoyasi

uchun kerak bo'lsa, jonini fido qilishi lozimdir.

Siz yosh avlod Vatanimiz kelajagi uchun a'lo baholaringiz, namunali xulqingiz bilan javob berasiz degan umiddaman.

V.Baholash: Guruhlardan eng aktiv

ishtirok etgan,

mustaqilfikrli o'quvchilarni aniqlab

baholayman. Guruh

ballari jamlanib, e'lon qilinadi.

VI.Vazifa:

1.She'rni yod olish

2.Vatan haqida maqollar o'rganish

3. O'zingiz yaxshi ko'rgan qishlog'ingizni biror
ioyini rasmini chizib keling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.3- SINF O'QISH DARSLIGI

2. "BOSHLANG'ICH TA'LIM" JURNALI

3.O'Z TAJRIBALARIMDAN.

